

O'ZBEK TILINI O'RGANISH MAZMUNINI MINIMALLASHTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY METODLAR

A.Sultanova

*Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

G.G'afforberganova

*Ajiniyoz nomidagi NukusDPI
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti*

Kalit so'zlar. *Darslik, integratsiya, til ta'limi, savodxonlik, interaktiv metodlar*

Ключевые слова. *Учебник, интеграция, языковое образование, грамотность, интерактивный метод*

Keywords. *Textbook, integration, language education, literacy, interactive methods.*

Bugungi kunda xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga tatbiq qilish maqsadida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida zamonaviy tipda yangi darsliklarning yaratilishi quvonarli holdir.

Tilni yaxshi bilgan insonlar ilm-fan, san'at va boshqa sohalarda yanada yuqori natijalarga erishadilar. Turli tillarda gaplashadigan insonlar orasidagi muloqotni osonlashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. O'zbek tili bo'yicha o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini, fikrlash doirasini kengaytiruvchi o'quv qo'llanma va darsliklar ko'plab nashr etilmoqda. Mana shu darsliklarda yutuqlar bilan birga ba'zi mulohazali o'rinlar ham uchrab turadi. Jumladan, grammatik ma'lumotlarni taqsimlashda izchillikning yo'qligi, ba'zi mavzular esa faqat nutqiy mavzulardan iborat bo'lib qolayotgani shular jumlasidandir. [3] Bir-biriga yaqin (qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa) tillarga o'zbek tilini o'qitishda ikki tilda farqli bo'lgan jihatlarga ko'proq e'tibor berib, o'quvchilar o'z ona tilidan kelib chiqqan holda tushunadigan o'xshash bo'lgan mavzularni ixchamlashtirish ta'lim mazmunini mimimallashtirishga hamda uning sifatini, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Umumta'lim maktablari uchun davlat tili sifatida o'zbek tilida ma'no va foydalanishda o'xshashliklarga ega bo'lgan til hodisalarini ta'lim mazmundan chiqarib tashlamaydilar. Ikki tilda mos keladigan til hodisalarini (lingvistik atamalar-tushunchalar, ta'riflar, xususiyatlar, tasniflar, grammatik shakllar va vositalar) chiqarib tashlashdan maqsad o'quv mazmunidan ona tili darslari bilan bog'liq takrorlarni bartaraf etadigan dasturiy materiallarni minimallashtirishdir.

O‘zbek tilini o‘qitish mazmunini minimallashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- muayyan sinfda o‘rganiladigan lingvistik atama va tushunchalarni tanlash;
- o‘zbek tiliga xos atamalarga ta’riflar va imlo, grammatik, tinish belgilarini tanlash;
- qo‘shimcha tushuntirishni talab qiluvchi fonema, imlo, grammatik shakllarni tanlash.

Bunday minimallashtirish faqat til hodisalarini tanlashning yetakchi tamoyillarini to‘g‘ri tanlashga zamin yaratadi. Bu quyidagi tamoyillar bo‘lishi mumkin:

- bolalarning ona tili va o‘rganilayotgan (o‘zbek) tilida nutqining rivojlanish darajasini hisobga olish; shu jumladan, maktab o‘quvchilarining nutqida yo‘l qo‘yiladigan xatolarni hisobga olish;
- ona tili darslarida o‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini hisobga olish;
- qoraqalpoq va o‘zbek tillarining o‘xshash va farqli tomonlarini hisobga olish.

O‘quvchilarining nutqi rivojlanish darajasini aniqlashtirish ularning o‘zbek tilini o‘rganishdagi imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Ma’lumki, leksik nuqtai nazardan alohida so‘z-terminlarni o‘quvchilarga tanish deb hisoblash mumkin va ular ustida yangi lingvistik tushunchalar sifatida maxsus ish olib borishning hojati yo‘q; Talaffuzi, imlosi va qo‘llanishi o‘xshash (bir oz o‘xshash) qoraqalpoq so‘zlari zaxirasidan kelib chiqib, o‘zbek atamalarining ma’lum qismini nazariy asoslarsiz kiritish mumkin. [5]

O‘zbek tilini o‘qitish mazmunini minimallashtirishda o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlarini hisobga olish tamoyili juda muhim o‘rin tutadi. Fonetika, grafika, lug‘at, lingvistik atamalar-tushunchalar, grammatik shakllar, ularning ma’nolari va qo‘llanilishini taqqoslash orqali to‘liq yoki qisman moslikni aniqlash, takrorlarni majburiy ta’lim minimumidan chiqarib tashlash va faqat lingvistik hodisalarini tanlash mumkin. Ikki tilda tafovutlarning mavjudligi nazariy ma’lumotlarni o‘rganishni talab qiladi. Shunday qilib, o‘zbek tilini o‘qitishning minimal mazmunini belgilashda quyidagi tamoyillar maqsadga muvofiq: Bolalarning ona tili va o‘rganilayotgan (o‘zbek) tilida nutqining rivojlanish darajasini hisobga olish; shu jumladan, maktab o‘quvchilarining nutqida yo‘l qo‘yilgan xatolarni hisobga olish; o‘quvchilarning ona tili darslarida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini hisobga olish; qoraqalpoq va o‘zbek tillarining o‘xshash va farqli tomonlarini hisobga olish.

Zamonaviy metodlarda raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda — onlayn platformalar, multimedia taqdimotlari va boshqalar. An‘anaviy metodlar oddiy o‘rganiladigan materialning chuqurroq tushunilishiga yordam beradi. Zamonaviy metodlar esa o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi. [1]

Innovatsion texnologiyalar ko‘nikma rivojlantirish jarayonini tubdan yangilaydi. Ular nafaqat ta‘lim sifatini oshiradi, balki insonlarning kasbiy malakalarini ham mustahkamlashi mumkin. Kelajakda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo‘ladi. Buning natijasida biz raqobatbardosh kadrlar tayyorlashimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах
2. Узбекистана в условиях национального возрождения. Автореф. дисс. доктора пед. наук. – Тошкент, 1998.
3. Мирджалалова Л.Р. Ўзбек тили машғулотида болаларни савол-жавобга ўргатишнинг назарий-методик асослари (таълим-тарбия рус тилида олиб бориладиган болалар боғчалари мисолида): Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 66-бет.
4. Х.Мухитдинова О‘zbek tili. - Т.: О‘qituvchi, 2019. 128 – bet.
5. A.Rafiyev, G.Muhammadjonova O‘zbek tili. - Т.: О‘qituvchi, 2019. 128 – bet.